

FE'LNING FUNKSIONAL SHAKLLARI

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

FUNCTIONAL FORMS OF THE VERB

Jorayev Oybek Sherali ogli

TDPU named after Nizami, Uzbek language and

literature department 3rd grade student

Annotatsiya:

Ushbu maqolada fe'ning funksional shakllarida uchraydigan muammoli masalalar, ayrim bahsli holatlar yuzasidan ba'zi mulohazalar va affiksatsiya tizimining qiyosiy metod asosida o'rganilishi haqida fikr yuritilgan.

Abstract: In this article, the problematic issues encountered in the functional forms of the verb, some comments on some specific cases and the study of the affixation system based on the comparative method are discussed.

Kalit so'zlar: til, fe'l, funksional shakl, qo'shimcha, kesim, tilshunoslar, urg'u, darslik.

Keywords: language, verb, functional form, suffix, participle, linguists, accent, textbook.

“Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka e'tibor, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Bu oliyanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak [8].

Til bu insonning dunyoda borligini ko'rsatadigan, millatning mavjud ekanligini bildiradigan muhim belgidir. Davlat mustaqilligi uchun ramzlar qanchalik muhim bo'lsa, millat uchun ham til shunchalar muhimdir. “Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur” [1. 18].

Har qaysi til davrlar oralig'ida shakllanib boradi. Jumladan, hozirgi o'zbek adabiy tili ham 14 asrdan beri shakllanib kelayotgan tildir.

O'zbek tili morfologiyasi ichki komponentlar jihatidan bir qancha guruhlarga bo'lingan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida mustaqil so'z turkumlari soni oltitani tashkil etadi: ot, sifat, son,

fe'l, ravish, olmosh. Ushbu so'z turkumlari ichidan fe'l so'z turkumi bir muncha murakkabligi va muammoli masalalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Shaxs va narsaning harakat va holatini bildirgan so'zlarga nisbatan fe'l termini ishlatiladi. Fe'l ob'yektning sub'yektda kechayotgan voqea-hodisalar harakat va holatining real voqelikda tasvirlanishidir. Fe'lning ma'lum bir vazifa bajarishi uchun xoslangan shakliga fe'lning funksional shakllari deyiladi.

Fe'lning to'rtta funksional (vazifa) shakli mavjud:

1. Sof fe'l
2. Harakat nomi
3. Sifatdosh
4. Ravishdosh

Fe'lning sof fe'l shakli deb, gapda fe'lga xos bo'lgan barcha grammatik kategoriyalarni (daraja, bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son) o'zida mujassamlashtirgan, sintaktik vazifasi jihatidan fe'l kesim sifatida shakllangan birlikka nisbatan aytiladi. Masalan, Men shu bugun uyga boraman (Gazetadan – O.J.). Ushbu gapda boraman so'zi sof fe'l sifatida shakllangan sodda fe'l kesim bo'lib, fe'lga xos bo'lgan barcha grammatik kategoriyani o'zida mujassamlashtirgan.

Fe'lning otga xoslangan shakli harakat nomi bo'lib, ish-harakatning nomini bildirib keladi va shu hususiyati jihatidan ot so'z turkumiga yaqin turadi. Uning ot so'z turkumidan ajralib turadigan jihati har doim fe'lga xos bo'lgan bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat kategoriyalarini o'zida mujassamlashtirishi va shu jihati orqali fe'l so'z turkumiga mansubligidir. Lekin harakat nomi ham otlar kabi kelishik va ko'makchilarni boshqarib kelish xususiyatiga ega.

Harakat nomi gapda, sintaktikada, o'rni erkin bo'lib, ega, aniqlovchi va ot kesim ba'zan hol bo'lib ham kela oladi.

Darsliklarda harakat nomi yasovchi qo'shimchalar quyidagicha berilgan: "Harakat nomi fe'l asoslariga - (i)sh, - (u)v, - moq qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan yasaladi" [2. 54].

Ba'zi adabiyotlarda, xususan, Ra'no Sayfullayevaning "Zamonaviy o'zbek tili morfologiyasi" nomli monografiyasida -ganlik affiksi harakat nomi qo'shimchasi sifatida berilgan bo'lsa, tilshunos olim Azim Xojiyev -lik qo'shimchasini harakat nomi yasovchi qo'shimchalar safiga kiritadi.

Bular quyidagilardir:

olmoq, ko'rsatmoq, olish, ko'rsatish, oluv, ko'rsatuv [3. 322].

kesmoq, osmoq, tiriklay kuydirmoq, chopish [4. 209].

yozmoq, yozish, yozuv, o'qimoq, o'qish, o'quv [5. 188].

Ushbu misollar ichida: olish (shevaga xoslik jihatidan, sinonimi kurash – O.J.), ko'rsatuv, osmoq, chopish, yozuv, o'quv kabi so'zlar sinxron aspekt nuqtai nazaridan (ma'no jihatidan ham – O.J.) ot so'z turkumiga o'tgan so'zlar hisoblanadi. Bu so'zlarda ot so'z turkumiga xos ma'no tashish xususiyati fe'lga nisbatan kuchliroq. Ushbu fikrlarga tilshunoslar tomonidan

asossiz deb qaralgan holatda bu soʻzlarni toʻliq feʼl soʻz turkumiga mansub soʻzlar deb qabul qilish ilmiy xatolikni yuzaga keltiradi.

Oʻzbek tilida aksentema (urgʻu) hodisasi mavjud. “Urgʻu soʻz tarkibidagi boʻgʻinlardan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytilishi yoki gaplardagi ayrim boʻlaklarning nutq oqimidagi ayrim frazalarning maxsus ohang bilan taʼkidlanishidir” [6. 83].

Urgʻu ham ikki turga boʻlinadi:

- 1) gap urgʻusi
- 2) soʻz urgʻusi

Gap urgʻusi gap tarkibidagi soʻzga, soʻz urgʻusi esa soʻz ichidagi boʻgʻinga (toʻgʻrirogʻi, boʻgʻin ichidagi unli tovushga – O.J.) tushadi. Yuqoridagi keltirib oʻtilgan koʻrsatuv, yozuv, oʻquv, oʻtirish, osmoq kabi soʻzlarning birinchi boʻgʻiniga, yaʼni feʼlning oʻzak tarkibidagi birinchi unliga, urgʻuning tushish holati kuzatilsa, bu soʻzlar fel turkumiga mansub soʻzlardir. Agar soʻzlar tarkibidagi harakat nomi qoʻshimchasi deya qayd etilgan - (i) sh, - (u) v, - moq qoʻshimchalari tarkibidagi unli tovushga urgʻuning tushish holati kuzatilsa, ot soʻz turkumiga mansub soʻzlar deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Feʼlning sifatga xoslangan shakli sifatdosh boʻlib, asosan sifat, baʼzan ot soʻz turkumiga mansub soʻzlarga xos maʼno tashish xususiyatiga ega boʻlgan feʼl formasi hisoblanadi.

Sifatdosh gapda otga bogʻlanib aniqlovchi vazifasida keladi, baʼzan feʼlni feʼlga bogʻlash holati ham uchrab turadi.

Sifatdosh turlanib oʻrin-payt kelishigi -da affiksini qabul qilganda payt holi vazifasini bajaradi. Masalan, Men bu odamni koʻrganimda birdan oʻyga tolaman.

Maktab darsliklarida sifatdosh yasovchi qoʻshimchalar deb quyidagilar keltiriladi: “Sifatdoshlar feʼl asoslariga - gan (kan, qan), -ydigan (adigan), -(a)yotgan, -(a)r qoʻshimchalarini qoʻshish yoʻli bilan hosil qilinadi” [2. 57].

Feʼlning ushbu funksional shaklida koʻpgina bir toʻxtamga kelinmagan fikrlar mavjud. Akademik Gʻani Abdurahmonov -gan, -ar, -gʻon, -digan, -mish, -jak, -si, -yotgan, -asi,- gusi kabi qoʻshimchalarni sifatdosh yasovchi qoʻshimchalar deb maʼlumot beradi va quyidagi misollarni keltirib oʻtadi: oʻqigan, oʻtar, bilagʻon, yozadigan, oʻtmish, kelajak, kelasi, boʻlayotgan, boʻlgʻusi.

Ushbu misollar tarkibida oʻtmish, kelajak, kelasi, boʻlgʻusi soʻzlari feʼl turkumiga mansub soʻzlar emas deb oʻylaymiz. Sababi, -mish, -jak, -si, -gʻusi kabi qoʻshimchalar hozirgi oʻzbek adabiy tili uchun mos sifatdoshlar yasamaydi, buni diaxron aspekt (tarixiylik) jihatidan koʻrib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Raʼno Sayfullayeva muallifligidagi “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” oʻquv qoʻllanmasida sifatdosh yasovchi qoʻshimchalar deb, -gan, -(a)r, -(u)vchi, -mish, ajak, -asi (gusi) qoʻshimchalarini sanab oʻtadi. Sh.Shoabdurahmonov ham universitet talabalariga moʻljallangan darsliklarida R.Sayfullayeva tomonidan tan olingan qoʻshimchalarni qayd etadi. Sh.Shoabdurahmonov - (u)vchi affiksi yordamida sifatdosh yasalishiga misol qilib oʻquvchi soʻzini keltiradi. Shonazar

Shoabdurahmonov tomonidan tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” deb nomlangan darslikda -(u)vchi qo‘shimchasini ot yasovchi qo‘shimcha, o‘quvchi so‘zini esa shaxs oti deb keltirib o‘tadi. Xuddi shu ma’lumotni filologiya fanlari nomzodi Nargiza Erkaboyeva “O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami” o‘quv qo‘llanmasida ham uchratishimiz mumkin. Ushbu ma’lumotlardan akademik Sh.Abdurahmonovning -(u)vchi qo‘shimchasini ot yasovchi qo‘shimcha, o‘quvchi so‘zini esa shaxs oti deb qabul qilgan fikrlariga qo‘shilamiz. Ushbu g‘alizliklarni oldini olish uchun affikslar tizimini qayta ko‘rib chiqish kerak.

Yana bir muammoli masala sifatdoshlarning tuslanib shaxs-son qo‘shimchalarini qabul qilishi va kesim vazifasida kelishidir. Sifatdosh ot kesim vazifasida kela oladi. Masalan, Yigit kishini uyalgani o‘lgani, eman daraxtining yiqilgani singani gapida sifatdoshning ot kesim vazifasida kelish holatini ko‘rishimiz mumkin.

Akademik G‘ani Abdurahmonov sifatdoshlar tuslanish xususiyatiga ega deb ma’lumot beradi va bunga misol qilib yozganman, yozgansan, o‘tarsiz, o‘tardingiz kabi so‘zlarni keltiradi. Bunday fikrlarni ilgari surgan tilshunoslarimizdan yana biri Azim Xojiyevdir. Olim “hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi shaxs-son qo‘shimchasini qabul qiladi”, degan fikrni ilgari suradi va bunga misol qilib keladiganman, keladigansan so‘zlarini ko‘rsatadi. Bunday holatda sifatdosh shaxs-son qo‘shimchasini qabul qilsa, fe’l kesim sifatida shakllanadi. Lekin A.G‘.G‘ulomov gapda sifatdoshning o‘rni qat’iy ekani va sifatdosh gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelishi haqida ma’lumot beradi va darsligida aniqlovchi vazifasida keluvchi birliklar safiga sifatdoshni ham kiritadi. Agar sifatdosh tarkibiga shaxs-son qo‘shimchalari qo‘shilsa, bunday holatda fe’l tarkibidagi -gan, -adigan, -yotgan, -ar, -ydigan va boshqa shu tipdagi qo‘shimchalarni zamon hosil qiluvchi qo‘shimchalar deb qabul qilish to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu fikrlarga tilshunoslar tomonida noto‘g‘ri deb qaralgan holatda, sifatdoshga qo‘shilgan -man, -miz, -san, -siz qo‘shimchalarini ot kesimni shakllantiruvchi bog‘lamalar sinfiga mansub deb qarash eng maqbul holatdir. Shundan ko‘rinib turibdiki, sifatdosh gapda faqatgina aniqlovchi va ot kesim vazifasidagina kela oladi va hech qanday shaxs-son qo‘shimchasini qabul qilmaydi. Fe’lning ravishga xoslangan shakli ravishdosh deb atalib, fe’lni fe’lga bog‘lash vazifasini bajaradi. Ravishdosh yasovchi qo‘shimchalar quyidagilardir: -(a)y, -(i)b, -may/masdan, -gach, -ganda, -guncha, -gani. Bu qo‘shimchalarning qo‘shilishiga qarab ravishdosh harakatning holat, davomlilik, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, harakatning boshlanish nuqtasi, harakat sodir bo‘lish payti, harakatning maqsadi kabi holatlarni ifodalab keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, harakat nomi tarkibidagi, ya’ni fe’lning funksional shakllari, hamma so‘zlarni ham fe’l so‘z turkumiga mansub so‘zlar deb qabul qilish, sifatdoshlarga shaxs-son qo‘shimchasi qo‘shilishi kabi masalalar biroz bahsli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Yuqorida ilgari surgan fikrlarimiz orqali bizga ma’naviy jihatdan ustoz bo‘lgan tilshunoslarimizning fikrlariga qarshi chiqishdan yiroqmiz. Bizning maqsadimiz rivojlanayotgan o‘zbek tilining yanada taraqqiy etishiga o‘z hissamizni qo‘shishdan iboratdir. Zero, najot ilmda, najot muallimda!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Sharq, 2006.
2. N.Mahmudov va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. “Tasvir” nashriyoti. – T.: 2017.
3. Ҳозирги ўзбек адабий тили I. (Фонетика, Лексикология, Морфология). – T.: 2018.
4. Г.А.Абдурахмонов. Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти. – T.: 1996.
5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. R.Sayfullayeva. – T.: 2009.
6. А.Хожиев. Фель. Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти. – T.: 1973.
7. Н.Жамолхонов. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. «Talqin» nashriyoti. – T.: 2005.
8. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-ozbek-tili-xalqimiz-uchun-milliy-ozligimiz-va-mustaqil-davlatchilik-tim>.